


## Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida Toshkent shahrida 12,7 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 mingtaga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7,9 mingta (97,0%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 69,2 mingtani tashkil etgan.



*Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.*

*Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	737	704	205
 Sanoat	13760	13427	2270
 Qurilish	5578	5431	1443
 Savdo	14515	14107	3407
 Tashish va saqlash	3029	2960	543
 Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	5301	5080	1042
 Axborot va aloqa	2775	2699	647
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1393	1367	180
 Boshqa turlari	24230	23461	2977



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**

2019 yilning 1 yanvar holatiga 71,3 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,4 % savdo, 19,3 % sanoat, 7,8 % qurilish, 1,0 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 7,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 3,9 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 34,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Yunusobod (9824 ta), Chilonzor (9169 ta), Mirzo Ulugbek (8258 ta), Olmazor (7280 ta), Shayxontohur (7074 ta), Yakkasaroy (6537 ta) va Mirobod (6159 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchtepa (5984 ta), Yashnobod (5401 ta), Sergeli (4173) hamda Bektemir (1459 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, mingda.**






## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 69 236 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7,9 mingta (12,9 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,4 % savdo, 19,4 % sanoat, 7,8 % qurilish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,3 % tashish va saqlash, 3,9 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 33,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Yunusobod (9498 ta), Chilonzor (8775 ta), Mirzo Ulug'bek (8156 ta), Olmazor (7185 ta), Shayxontohur (6735 ta), Yakkasaroy (6463 ta), Mirobod (6008) va Uchtepa (5758 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (5148 ta), Sergeli (4075 ta) hamda Bektemir (1435 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**






## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 12 714 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 20,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Yunusobod (1753 ta), Chilonzor (1559 ta), Mirzo Ulug'bek (1521 ta), Shayxontohur (1287 ta), Olmazor (1266 ta), Mirobod (1154 ta) va Yakkasaroy (1133 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchtepa (1039 ta), Yashnobod (980 ta), Sergeli (765 ta) hamda Bektemir (257 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (3407 ta), sanoat (2270 ta), qurilish (1443 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1042 ta) va axborot va aloqa (647 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va

saqlash (543 ta), qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi (205 ta) hamda sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (180 ta) faoliyat turlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yillar kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)**

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Toshkent shahri boʻyicha jami</b>	<b>7744</b>	<b>100</b>	<b>10114</b>	<b>100</b>	<b>12714</b>	<b>100</b>
Savdo	1559	20,1	1871	18,5	3407	26,8
Sanoat	1661	21,4	2562	25,3	2270	17,9
Qishloq va oʻrmon xoʻjaligi	97	1,3	237	2,3	205	1,6
Qurilish	638	8,2	994	9,8	1443	11,3
Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	813	10,5	939	9,3	1042	8,2
Tashish va saqlash	304	3,9	425	4,2	543	4,3
Axborot va aloqa	258	3,3	445	4,4	647	5,1
Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish	130	1,7	143	1,4	180	1,4
Boshqa turlari	2284	29,6	2498	24,8	2977	23,4

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, mingda








## TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 60,0 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9,5 mingta, oilaviy korxonalar – 2,2 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 47,5 mingta va boshqalar 1,3 mingtani tashkil etgan.


### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 4728 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1104 taga yoki 23,3 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda**



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 2201 tasi qo'shma korxonalar, 2527 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod (791 ta yoki jami ulushi 16,7 %), Yakkasaroy (752 ta yoki 15,9 %), Yunusobod (632 ta yoki 13,4%), Mirzo Ulug'bek (592 ta yoki 12,5%), Chilonzor (544 ta yoki 11,5%), Yashnobod (386 ta yoki 8,2%) va Shayxontohur (338 ta yoki 7,1%) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor (257 ta yoki 5,4%), Sergeli (191 ta yoki 4,1%), Uchtepa (137 ta yoki 2,9%) va Bektemir (108 ta yoki 2,3%) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 1295 tani (27,4 %), savdoda 1282 tani (27,1 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1051 tani (22,2 %) tashkil

qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 64 tani (1,3 %), axborot va aloqada 194 tani (4,1 %), tashish va saqlashda 154 tani (3,3 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 50 tani (1,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 242 tani (5,1 %) va qurilishda 396 tani (8,4 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 1431 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 896 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 271 ta, Turkiya Respublikasi – 245 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 160 ta, Qozog'iston Respublikasi – 181 ta, va Koreya Respublikasi – 84 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (488 ta), sanoat (280 ta), qurilish (178 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (19 ta) va boshqa faoliyat turlari (466 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
<b>Sanoat</b>	190	35,5	280	19,6
<b>Savdo</b>	104	19,4	488	34,1
<b>Qurilish</b>	58	10,8	178	12,4
<b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>	12	2,2	19	1,3
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	20	3,7	79	5,5
<b>Axborot va aloqa</b>	24	4,5	86	6,0
<b>Tashish va saqlash</b>	16	3,0	40	2,8
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	10	1,9	15	1,0
<b>Boshqa turlari</b>	101	19,0	246	17,3



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.**

2019 yil 1 yanvar holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 59,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 12,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 8,2 mingtasi (13,7 %) Yunusobod, 7,5 mingtasi (12,6 %) Chilonzor, 6,9 mingtasi (11,6 %) Mirzo Ulug'bek hamda 6,4 mingtasi (10,8 %) Olmazor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 59,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 13,9 mingtasi (23,3 %) – savdo, 13,3 mingtasi (22,2 %) - sanoat, 5,3 mingtasi (9,0%) - qurilish, 0,6 mingtasi (1,1 %) -qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,0 mingtasi (8,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2,9 mingtasi (4,9 %) - tashish va saqlash, 2,6 mingtasi (4,4 %) - axborot va aloqa sohasi, 1,1 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 14,9 mingtasi (24,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, axborot va aloqa hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 12,0 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod tumani (1652 ta), Chilonzor tumani (1474 ta), Mirzo Ulug'bek tumani (1433 ta), Shayxontohur tumani (1226 ta), Olmazor tumani (1208 ta), Mirobod tumani (1089 ta) va Yakkasaroy tumani (1083 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Uchtepa tumani (985 ta), Yashnobod tumani (949 ta), Sergeli tumani (724 ta) hamda Bektemir (248 ta) tumanlarida tashkil etilgan.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (3407 ta), sanoatda (2268 ta), qurilishda (1439 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlari (1041 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (641 ta), tashish va saqlashda (543 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (201 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (175 ta) tashkil etilgan.

### Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 2288 tani tashkil etib, ulardan 2224 tasi yoki 97,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 16,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 43,8 % yoki 975 tasi sanoat, 17,1 % yoki 381 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,1 % yoki 358 tasi savdo, 2,4 % yoki 54 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 39 tasi qurilish, 0,9 % yoki 19 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 21 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,7 % yoki 37 tasi axborot va aloqa hamda 15,3 % yoki 340 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 3632 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -396 taga tugatish kamaygan.

*Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.*

*Misol tariqasida 2016 yilda 4507 ta, 2017 yilda 4028 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 3632 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 396 taga tugatish kamaygan.*

**Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida  
dinamikasi, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 3632 ta korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 780 tasi (21,5 %) savdo, 730 tasi (20,1 %) sanoat, 325 tasi (8,9 %) qurilish, 51 tasi (1,4 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 337 tasi (9,3 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 163 tasi (4,5 %) tashish va saqlashda, 130 tasi (3,6 %) axborot va aloqada, 43 tasi (1,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 1073 tasi (29,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

## Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
<b>Jami</b>	<b>4028</b>	<b>100</b>	<b>3632</b>	<b>100</b>	
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	54	1,3	51	1,4	-3
sanoat	805	20,0	730	20,1	-75
qurilish	298	7,4	325	8,9	+27
savdo	975	24,2	780	21,5	-195
tashish va saqlash	181	4,5	163	4,5	-18
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	475	11,8	337	9,3	-138
axborot va aloqa	141	3,5	130	3,6	-11
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	41	1,0	43	1,2	+2
boshqa turlari	1058	26,3	1073	29,5	+15

### Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha DINAMIKASI (+,-)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 3470 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan 358 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 765 tasi (22,0%) savdo, 728 tasi (21,0 %) sanoat, 323 tasi (9,3 %) qurilishda, 50 tasi (1,4 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 333 tasi (9,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 163 tasi (4,7 %) tashish va saqlashda, 129 tasi (3,7 %) axborot va aloqada, 41 tasi (1,2 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 938 tasi (27,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Uchtepa tumanida -230 ta, Yunusobod tumanida -367 ta, Olmazor tumanida -203 ta hamda Yakkasaroy viloyatida -294 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

**Toshkent shahar statistika  
boshqarmasi  
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi  
boshlig'i Rashidov Aziz  
Tel.:71-230-88-31**